
SARIKANDALIK SHOHNAZAR "O'Z KASBining FIDOYISI"; KO'KRAK NISHONI BILAN TAQDIRLANDI



Sarikandalik Shohnazar "O'z kasbining fidoyisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi miqyosida tashkil etilgan xalqaro ilmiy- amaliy ko'rik tanlovida "Zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish, oliy ta'lim muassasalarida yosh kadrlarni sifatli inklyuziv o'qitishni rivojlantirish va unga qo'yiladigan talablar, kreativ g'oyalar, takliflar hamda yechimlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya doirasida Sarikandalik yosh Avazxonov Shohnazar Gulnazarzoda "O'z kasbining fidoyisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Yosh Shohnazar o'qituvchilar sulolasi davomchisi sanaladi. Bobosi Avazxon Nazarqulov mahoratli jurnalist sifatida tanilgan va O'zbekiston Respublikasi jurnalistlar uyushmasi a'zosi hisoblanadi. Shohnazarga ijodiy muvaffaqiyat va zafarlar tilab qolamiz. Omad senga So'x farzandi!

Tabriklaymiz!

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-05-22 19:59:57